

12-10-2019

## POPULARIZING AND COLLECTING SYSTEM OF PEDAGOGICAL EXPERINCES.

Go`zalxon Mo`minova

*eacher of Primary education method chaire in Namangan State University*

Gulchehra Insapova

*teacher of Primary education method chaire in Namangan State University*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Mo`minova, Go`zalxon and Insapova, Gulchehra (2019) "POPULARIZING AND COLLECTING SYSTEM OF PEDAGOGICAL EXPERINCES.," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 12 , Article 71. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss12/71>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

## POPULARIZING AND COLLECTING SYSTEM OF PEDAGOGICAL EXPERINCES.

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2019 йил 12 сон**

**PEDAGOGIK TAJRIBALARNI TO'PLASH VA OMMALASHTIRISH TIZIMI**

Mo`minova Go`zalxon-Namangan davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi  
Insapova Gulchehra-Namangan davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqola ta'lim sifatini oshirishda nazariya va amaliyotning birligini ta'minlash, ilg'or pedagogik tajribalarni to'plash, o'rganish va qo'llash yo'llari haqida yozilgan. Ilg'or pedagogik tajribalarning asosiy funktsiyalari hamda novatorlik tajribalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ilg'or pedagogik tajriba, novatorlik, o'rganish, to'plash, tizim holiga keltirish, nazariya, amaliyot, printsip.*

**СИСТЕМА НАКОПЛЕНИЯ И ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОПЫТОВ**

Муминова Гузалхон-преподаватель кафедры Методики начального образования  
Наманганского государственного университета  
Инсапова Гулчехра-преподаватель кафедры Методики начального образования  
Наманганского государственного университета

***Аннотация:** В данной статье написано об обеспечении единства теории и практики в повышении качества образования, накоплении педагогического опыта, пути изучения и применения. Освещены новаторский опыт и основные функции передовых педагогических технологий*

***Ключевые слова:** передовые педагогические технологии, новаторство, изучить, собирать, привести в систему, теория, практика, принцип.*

**POPULARIZING AND COLLECTING SYSTEM OF PEDAGOGICAL EXPERINCES.**

Mo`minova Go`zalxon-teacher of Primary education method  
chaire in Namangan State University  
Insapova Gulchehra -teacher of Primary education method  
chaire in Namangan State University

***Abstract:** This article was written in the aim of improving educational standarts, gathering, using and learning state-of-the-art pedagogical experiments.*

***Key words:** state-of-the-art pedagogical experiences, resourceful ability, learning, teaching, gathering, theory, practice, principle.*

Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir [1]. Shunday ekan sog'lom, har tomonlama barkamol

avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaruvchi shaxs. Pedagog jamiyatning fuqarosi sifatida o'z mavqei va faol o'rnini o'quvchilarga namoyish qilishi lozim. Uning jamiyat va o'z jamoasidagi o'rni, tanlagan kasbi, o'qitayotgan predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi va qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni hurmat qilishi lozim.

Pedagogik nazariya va amaliyotning birligini ta'min etish bugungi kunda tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Bu jarayon didaktik printsip sifatida ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalarini qamrab oladi. Avvalo nazariya va amaliyotning birligi printsipi DTS va o'quv dasturlarida qat'iy belgilanib, ta'lim mazmuni va xarakteriga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ilmiy bilimlarni puxta egallash va uni amalga tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik nazariya va amaliyotning birligi printsipi "Kadrlar tayyorlashning milliy modeli" talablaridan kelib chiqib, nazariy jihatdan asoslangan ilg'or pedagogik (texnologik) tajribalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishga qaratiladi. Shunga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi printsipining izchil va uyg'un ravishda amalga oshirishni, o'quvchilarni o'quv materiallarining tub mohiyatini, tabiat va jamiyatning taraqqiyoti qonunlarini bugungi globallashuv davriga xos ekologik vaziyatlar bilan bog'lagan holda ilmiy yondashuvlar asosida atroflicha o'rganib, kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallab boradilar.

Nazariya va amaliyotning birligi printsipi izchil ravishda "Ilg'or pedagogik va ommalashtirish printsipi bilan bog'lanib ketadi. Ushbu printsipning mohiyatidan kelib chiqib, "fan-amaliyotga" tamoyiliga muvofiq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [2]

Har qanday ilmiy muammoning hal etilishi amaliyotning yaxshilanishiga qaratiladi. Shunga ko'ra ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish o'z-o'zidan shunchaki shaxsiy tajribani o'rganish bo'lmay, bu jarayon o'qituvchidan alohida ijodiy tajriba va ilmiy-pedagogik tayyorgarlikni talab etadi. Shu o'rinda "ilg'or tajriba" bilan "bunyodkorlik tajribasi"ni bir-biridan farqlash lozim. Ilg'or tajribada o'qituvchi yangi narsani yaratmaydi, innovatsion xarakterdagi materialni ya'ni qo'lga kiritilgan bor yangilikni samarali ravishda tatbiq etadi. Shu asosida ilg'or tajribani o'qituvchi izchil ravishda o'rganib qo'llay olishi uni asta-sekin shu tajribaning sohibiga aylantiradi. Chunki bu jarayonda shaxsiy pedagogik tajriba bilan ijodiy yondashuv uyg'unlashib ketadi. Demak, shu tajribani qo'llamagan va bilmagan mutaxassislar uchun bu jarayon ilg'or pedagogik tajriba ko'rinishida e'tirof etiladi.

Bunyodkorlik (novatorlik) tajribasida muallif o'zining ilmiy asoslangan ijodiy mahsulotini o'zi amalda sinab ko'rib, pedagogik omma hukmiga taqdimnoma ko'rinishida tavsiya etadi. Uning innovatsion mohiyati atroflicha tahlil etiladi. Tajriba-sinov natijalaridagi ko'rsatkichlar, dinamik o'sishlar va undan kelib chiqqan kafolatli natija oddiy, kundalik jarayonda amalga oshirilayotgan tajribalar bilan qiyoslanadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligiga asosiy e'tibor



qaratiladi. Demak, har ikkala tajriba turi ham o'zining yo'nalishi va mazmun-mohiyatiga qarab innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida e'tirof etiladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- umumnazariy tadqiqotni pedagogik turkum fanlarning qaysi yo'nalishlariga taalluqli ekanligi: tarbiya nazariyasi, didaktika, ijtimoiy pedagogika va boshqa
- alohida mavzular yo'nalishi bo'yicha;
- tavsiyalar (yoki tavsiyalarni amalga tatbiqi bo'yicha).

Mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, ilg'or pedagogik tajribalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi mumkin.

1. Ilmiy bilimlarni amaliy tajribalardan oldinda bo'lishi, ya'ni fan yangilikni yaratadi, ammo hali ta'lim amaliyotiga to'liq yetib bormagan bo'ladi. Ammo mohiyatan pedagogik nazariya va amaliyotga dialektikasi bir-birini to'ldirib, nazariya bilan amaliyotning birligi printsipiga asoslanishi lozim.
2. Ilmiy bilimlarni amaldagi tajribalardan o'zib ketishi, nazariy tadqiqotlar va nazariy muammolarni hal etishga qaratiladi.
3. Keltirilgan tavsiyalar asosida pedagogik kontseptsiyalar va ilg'or tajribalarni turli sharoitda sinovdan o'tkazish.
4. "Ishonchli, ilmiy asoslangan" deb topilgan tajribalarni ommaviy ravishda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish.

Ko'plab maktab rahbarlari, o'qituvchilar va o'zining metodik tajribalariga ega bo'lgan o'qituvchilarni ham ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va kasbiy pedagogik faoliyatlariga tatbiq etish masalasi bo'yicha yetarlicha tayyor deb bo'lmaydi. Chunki aksariyat o'qituvchilar pedagogik tadqiqot natijalari bilan tanishib borish imkoniyatiga ega emaslar. To'g'ri, bugungi globallashuv davriga xos axborot texnologiyasi rivoji, jumladan internet imkoniyatlari hamda masofaviy ta'lim tobora ommaviy tus olmoqda. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, pedagogik tadqiqotlar natijalari, ilmiy-amaliy tavsiyalar cheklangan doirada qolib kelmoqda. Qolaversa, pedagogik tadqiqotlar maktab ta'limi amaliyotidagi muammolarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lolgan emas.

Shunday bo'lsada innovatsion texnologiyalar tatbiqiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa ilg'or pedagogik tajribalar mazmunida interfaol metodlar tatbiqini keng qamrovda qo'llanilishi ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish omiliga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, ta'lim yo'nalishida chop etilayotgan ilmiy va metodik nashrlardan "ta'lim muammolari", "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Maktab va hayot" jurnallari, Xorij nashrlaridan "Педагогика", "ИННОВАЦИИ в образовании", "Мир образование в мире" kabi jurnallarida, televizion ko'rsatuvlarda ilg'or innovatsion tajribalar doirasida berib borilmoqda. Joylarda tashkil topgan ARM va ularning imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

Ilg'or innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida elektron darslik, elektron qo'llanma va boshqa elektron nashrlarga talabning kuchayib borayotganligi ilm-fan taraqqiyotini yana chuqur egallash uchun yaratilayotgan qulay imkoniyatlardir. Ilg'or

pedagogik tajriba ko'rinishida ommalashib kelayotgan elektron adabiyotlar va ularning tatbiqi davr talabi hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash o'qituvchining darslarini kuzatish va tahlil etish jarayonida ma'lum bo'ladi. So'ngi yillarda ochiq darslarni rejalashtirish o'qituvchi uchun shart bo'lgan me'yorga aylanib bormoqda [4]. Shunga ko'ra har bir o'qituvchi mutaxassis sifatida, o'z sohasining malakali va bilimdon fidoyisi sifatida ilmiy asoslangan dars tahlili va uning metodikasini bilmog'i lozim. Dars tahlillari jarayonida o'qituvchi tomonidan ko'tarib chiqilgan yangiliklar, yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar tatbiqi va uning samaradorligiga ko'ra ta'lim mazmunidagi ijobiy o'zgarishlarga qarab ilg'or pedagogik tajriba umumlashtiriladi va ommalashtiriladi.

Ochiq darslar mobaynida eng yuqori ball olib, yuqoridagi talablar bo'yicha o'qituvchining alohida ko'rsatgichlari tahlil etiladi. (Ochiq darslar kuzatuvchi va tahlili metodikasi ilova etildi).

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash va ommalashtirish o'ziga xos mahorat maktabini yaratadi. Bunda "uztoz-shogird" tizimi shakllanadi. Endi tetapoya bo'lib, maktab ostonasini xatlab o'tayotgan yosh mutaxassislarni mahorat maktabidan bahramand bo'lishi, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy omili hisoblanadi. Jumladan;

1. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga erishishning asosiy omili ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlab, uni ommalashtirishdan iborat. Buning uchun zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ilmiy-ijodiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.
2. O'qituvchilarni faol o'zlashtirishga yo'llaydigan zamonaviy ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish: monitor, kodoskop asosida rebus, krassvord, rangli jadval va sxemalar, masala va mashqlar, maqol va matallar, she'r hamda topishmoqlar, geometrik figuralar, shartli belgilar, rivoyatlar, ilmiy pedagogik tavsiyalarni namoyish etish, qisqa vaqtda interfaol metodlar yordamida o'quvchini topqirlikga, fikrlashga, tadqiq etishga chorlaydigan va ilhomlantiradigan vaziyatlarni vujudga keltirish talab etiladi.
3. Nazorat topshiriqlarini bosqichli ravishda o'quvchilarni individual-ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda berish, ularda qobiliyat ko'nikmalarini shakllantirishiga mas'uliyat bilan qarash lozim.
4. Integrativ yondashuv asosida o'quvchining ilmiy dunyoqarashini boyitib borishga erishish, shu asosida yangi ma'lumotlar bankini hosil qilishga oid uzluksiz metodik xizmatni amalga oshirish bilan ta'lim samaradorligiga erishish talab etiladi.
5. Har bir ta'lim muassasida o'qituvchining ijodiy qobiliyatini oshirib borishi, o'z ustida ishlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish bilan birga ilg'or pedagogik tajribalarni tizimli rag'batlantirishni amalga oshirish lozim.

Biror kasb egasi bo'lish uchun inson o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oladi. Bu mutaxassislik sirlarini egallash uchun bu borada katta tajribaga ega bo'lgan mutaxassisni o'zi uchun ustoz deb tanlab, uning tajribalaridan o'rganishga kelajakda o'z faoliyatida bu tajribalardan foydalanishga harakat qiladi.

Bugungi zamon talabi pedagogdan doimiy va tinimsiz ravishda o'z ustida ishlashni talab etmoqda. Demak, bu borada bo'lajak pedagog o'z ustida ishlashi va izlanishi joiz [3].

Pedagogning e'tiqodi va bilimdonligi uning yangi bilim, o'zi tanlagan sohadagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo'ladi. E'tiqodli va bilimdon pedagog o'ziga xos fikrlash tarsi bilan ajralib tura olishi shart.

Amaliyotda eng obro'li pedagoglar 1-navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo'lishadi va shundaylarni o'quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki, zamonaviy o'quvchi ko'plab ma'lumotlarga ega, uning psixologiyasi talab va takliflarni aniq bilib til topisha oladigan shaxsgagina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi. Bo'lajak pedagogni o'z ustida ishlashga o'rgatish tinimsiz fan yangiligidan xabardor bo'lib borishga da'vat etish lozim.

#### **References:**

1. Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.: Sharq, 1997.
2. Ibragimova X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma,-T.: Fan, 2005.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.: 2003.
4. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari.–Qarshi Nasaf, 2003.



**МУНДАРИЖА****ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ****01.00.00****ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ****PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES**

- 1 Visual c# da razryadli operatsiyalar.  
Temirov O.M..... 3
- 2 Java dasturlash tilida abstrakt sinflar  
Holmirzayev H.E..... 6
- 3 Ўнг томони номаълум ва коэффициенти узулишга эга бўлган биринчи тартибли  
чизиqli оддий дифференциал тенглама учун масалалар  
Тиллабаева Г.И..... 10
- 4 Matematika darslarida muammoli ta'lim  
Alixanov O.O..... 15
- 5 О некоторых задачах теории одномерной бифуркации  
Тухтасинов М, Кушақов Х.Ш ..... 20

**КИМЁ ФАНЛАРИ****02.00.00****ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ****CHEMICAL SCIENCES**

- 6 Карбоксиметилцеллюлоза: олиниши, айрим физик – кимёвий хоссалари,  
ишлатилиши (обзор)  
Сайпиев Т.С..... 27
- 7 N-vinilpirrolidon asosida suvda eruvchan sopolimerlar sintez qilish va ular  
makromolekulalarining kompozitsion tuzilishini o'rganish  
Toshmatov Y.R., Dexqonov R.S., Boydedayev. A.A..... 39

**БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ****03.00.00****БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ****BIOLOGICAL SCIENCES**

- 8 Far1 Related Sequence (FRS) генлар оилас ининг вакили frs10 гени g.hirsutum  
туридаги функсиясини рнки технологияси ёрдамида ўрганиш.  
Усманов Д.Э, Буриев З.Т, Абдукаримов Ш.С, Собиров Б.М, Мухторов А. Т..... 46
- 9 Кўхитанг тизмаси флораси таркибидаги ziziphora l. туркуми турларининг  
биоэкологияси  
Ибрагимов А.Ж, Батошов А.Р, Каримов Б.А, Мирзаев С.И ..... 50

**ТЕХНИКА ФАНЛАРИ****05.00.00****ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ****TECHNICAL SCIENCES**

- 10 Интернет самарали коммуникация канали сифатида  
Бекназаров К.Т..... 54

**ТАРИХ ФАНЛАРИ****07.00.00****ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ****HISTORICAL SCIENCES**

11	XX asrning 60-80-yillarida namangan viloyati xalq ta'limi tizimi: muammolar va yutuqlar Mamasaidov L. P.....	60
<b>ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>		
<b>09.00.00 ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ</b>		
<b>PHILOSOPHICAL SCIENCES</b>		
12	Tarixiy taraqqiyotda ayollarning o'rnini Mamatov O.V.....	64
13	Миллий байрамларда санъат турларининг ифодаси Шадиметова Г.М.....	67
14	Замонавий санъатларда янги эстетик мезонларнинг вужудга келиши Кадирова Д.С.....	72
15	Мақом куйларининг фалсафий-эстетик моҳияти Нуруллаева З.С.....	78
16	Ахборот медиамаданияти трансформацияси ва глобаллашуви Кодиров Н.М.....	83
17	Ренессанс даври мутафаккирлари оилавий муносабатларда поклик ва гўзаллик ҳақида Хандамова М.....	93
18	Полифункционаллик халқ қабулхоналарининг ўзига хос хусусияти сифатида Айтбоев М.Ю.....	99
19	Оиланинг жамиятдаги роли ва ижтимоий функциялари Абдуллаева Н.....	103
20	Инновация фалсафасининг ижтимоий функционал хусусиятлари Ходжаев С.Б.....	108
21	Бохарзий ва унинг вақф ерлари Норова М.Ф.....	113
22	Туркистон “Янги усул” мактабларида таълим жараёнининг ташкил этилиши ва ундаги гендер муаммолари Намазова Ю.М.....	121
23	Аҳмад Заки Валидийнинг тарих фалсафаси Хужаев М.И.....	126
<b>ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>		
<b>10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>		
<b>PHILOLOGICAL SCIENCES</b>		
24	The Role of stylistics in linguistics and literature Umrzaqov I. I.....	133
25	Девону Луғотит Турк” асарида қўлланган шахс номлари гуруҳига оид лексемаларнинг семантик хусусиятлари Розикова Г.З.....	136
26	О'zbek tiliga o'zlashgan arabcha leksemalar va ularning badiiy asarlarda qo'llanilishi Rahmatullayev.Y.....	142
27	Замонавий таълим тизимида касбий компетентликни модуллаштиришмоҳияти	

Абдиева С.М.....	146
28 Qo'shma gaplarda shakl va mazmun Ahmedova N.Sh.....	151
29 Краткий обзор по историю изучения терминов родства в узбекских и английских языках Каримова В.....	156
30 O'zbek adabiy tili uslublarining shakllanishi Vabaxanova D.A.....	163
31 Йўл мотиви ҳақида Қўчқаров О.....	169
32 Жаҳон тилшунослигида диний функционал услубнинг ўрганилиши Юсупова Ш.Т.....	173
33 Жек лондоннинг исёнчи асаридаги воқеаликни тасвирлаш хусусиятлари Najmiddinov J, Bahodirov A.....	179
34 Johann Wolfgang Gytoring "Yosh Verterning iztiroblari" romanida poetonimlar talqini Vozorova R.Sh.....	182
35 "Алпомиш" библионими ва бош тимсол исми, лақаби хусусида Улуқов Н, Юнусова Б.....	186
36 Наманган қипчоқ шевалари ва этнослараро жараёнлар Дарвишов И.Ў.....	190
37 Grammatik ko'rsatkichlarning o'zlashtirilishida aniqlik darajasi (O'zbek tilini o'rganayotgan koreyslar misolida) Saidaxmedova O.I.....	197
38 Перевод понятий означающие национальных конвенций, традиций и обряд Самандаров . Ш.С.....	202
39 Принцип вежливости в речевом общении. Саидова М.Ш, Холматова Г.И.....	205
40 Адабиёт ва прагматика Раҳимов У.Э, Махаммаджлонов Н.Д.....	209
41 Хикматли сўзлар таржимасида қофияни сақлаш Абдуллажанов А, Мамадалиев Э.....	214
<b>ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>	
<b>GEOGRAPHICAL SCIENCES</b>	
42 Фарғона водийси дарёлари оқимининг иқлим илишига реакцияси Солиев И.Р., Ғулумжонов Д.....	219
<b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>13.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b>	
<b>PEDAGOGICAL SCIENCES</b>	
43 Готовность будищих педогогов как основной фактор успешности инклюзивного образования Сатторов М, А.....	225

44	Педагогик стратегия - олий таълим муассасаси битирувчисининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг концептуал асоси Эргашев Б.Б.....	229
45	Таълимда ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланиш афзалликлари Ниязова Н.А.....	234
46	Олий таълим муассасалари ўқув-тарбия жараёнида фанларичра ва фанлараро интеграциясини таъминлашнинг педагогик-психологик масалалари Жуманов А.А.....	237
47	Мактабгача таълим ташкилотларини инновацион ривожлантириш муаммолари Абдуназарова Н.Ф, Хамдамова М.Т, Парманов Ж.А.....	242
48	Физика ўқитувчиларининг таълимга инновацион ёндашуви Бекназаров З.Ф.....	245
49	Тухника йўналишиндаги мутахассис компетентлигининг модели Даминов О.О.....	250
50	Олий таълим муассасаларида замонавий инновацион технологияларини қўллашнинг ўзига хослиги ва хусусиятлари Исмаилова З.К, Химматалиев Д.О.....	257
51	To actual directions of development of export of fruit and vegetable products in Uzbekistan Avulchaeva F.....	261
52	The significance of cultural awareness in second language learners' classroom Umirzakova D.A.....	264
53	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yo'llari Jo'rayeva T.U, Shamirova Y.K .....	268
54	Role of peer observation in foreign language teaching Jalolov Sherali, Botirova Z.X.....	274
55	Ingliz tilni o'rgatishda mnemonik usullardan foydalanish Yunusova Y.B.....	278
56	Талаба ёшлар соғлом турмуш тарзини шакллантириш масаласига қадрият сифатида қарашни тарбиялаш муаммолари Назаров А.Т.....	281
57	“Олий таълим муассасалари ўқув–жисмоний машғулотлар жараёнини ташкиллаштиришда blended learning концепциясидан фойдаланиш орқали таълим сифатини ошириш” Махкамов А.Ю.....	284
58	Ўқувчиларнинг геометриядан ўқув фаолиятини фузионизм ғояси асосида такомиллаштириш йўллари Ғойибназарова Г.Н, Джураева Ш.К.....	288
59	Мактабгача таълим муассасаларини сифат жиҳатдан такомиллаштириш Ибрагимова Г.Н.....	293
60	8-синф физика курсининг “электр заряд. электр майдон” бобини ўқитиш Зоҳидов И.О, Каримова Р.К, Умаров А.О.....	298

61	Таркибида сирт фаол модда тутган учкарбамид хлорат натрий дефолиантини олиш жараёнини ўрганиш Умиров Ф.Э, Худойбердиев Ф.И, Номозова Г.Р, Закиров Б.С.....	303
62	Ижтимоий-эмоционал кўникмалар шаклланишининг педагогик-психологик омиллари Раҳимова М.А.....	311
63	Ҳамкорлик педагогикасининг узлуксиз таълим тизимидаги инсонпарварлашув хусусиятлари Ўринова Ф.Ў, Усмонова Ш.Ё.....	317
64	Чақириққача ҳарбий таълим бўйича мутахассисларни шакллантиришнинг долзарб масалалари Хасанов А.Т, Юсупов Т.Т.....	323
65	Мобиллик-олий педагогик таълимни модернизация қилиш сифатида Эшназарова М.Ю.....	327
66	Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларида касбий муҳим сифатларни шакллантириш педагогик жиҳатлари Қодиров М.М.....	332
67	Бошланғич таълимда прагматик ёндашув асосида матн ўқишнинг ўзига хос хусусиятлари Йўлдашева Д, Буважонова М.....	338
68	Бошланғич таълимда интеграциялашган ўқитишнинг аҳамияти Рустамова Д.....	341
69	Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларни нутқ маданиятини шакллантиришда китоб ва унинг аҳамияти Ўринова Ф, Сидикова З.....	344
70	Технология использование метода кейс-стади при изучении компьютерной графики. Отабаева Ф.Т.....	348
71	Pedagogik tajribalarni to'plash va ommalashtirish tizimi Mo'minova G, Insarova G,.....	355
72	Талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ривожлантириш- ўқув жараёнининг асоси Мўминов З.О.....	359
73	Innovatsiya ta'limning muhim elementidir. Madaminov F.Sh.....	367
74	Intellectual kompyuter o'yinlari yordamida individual matematik ta'limni yo'lga qo'yish Najmiddinova . N.Y.....	373
75	Футболчиларни эмоционал ҳолатларини аниқлашнинг методик хусусиятлари Сатиев Ш.К .....	378
76	Бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини такомиллаштириш. Қамбаров М.М .....	384

77	Содержание и структура учебников по методике обучения языкам Габдулхаков, Фарид Ахунович.....	391
	<b>ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b> <b>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>PSYCHOLOGICAL SCIENCES</b>	
	<b>19.00.00</b>	
78	Оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш омиллари Ортиқова З.Н.....	395
	<b>СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b> <b>СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ</b> <b>SOCIOLOGICAL SCIENCES</b>	
	<b>22.00.00</b>	
79	Маънавий тарбия ва тарихий онг Махкамов Қ.О.....	398